


**FARG'ONA VILOYATINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019 - yil yanvar- dekabr dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar- dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13 515,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 570,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,2 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlari tovar aylanmasi 11 944,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 189,4 mlrd. so'mni (2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 %) ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**




2019 - yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Qo'shtepa, Quva va Uchko'prik tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,2 % ga o'sdi va 1 570,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,6 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 11 944,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,1 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,4 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (99,9 %), Farg'ona (99,4%) So'x (99,4) Furqat (98,5 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko'rinib turibdi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,6 % ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg'ona shahar (25,0 %), Qo'qon (17,4 %), Bag'dod tumani (14,6 %) va shaharlarida kuzatilgan.


**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so'm)	2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1 570,7</b>	<b>104,2</b>	<b>11 944,2</b>	<b>105,1</b>
<b>shaharlar</b>				
Farg'ona	880,5	105,9	2643,95	106,0
Qo'qon	339,4	102,8	1609,46	104,3


Quvasoy	14,6	71,1	303,04	107,4
Marg'ilon	97,0	115,8	952,85	103,3
<b>tumanlar</b>				
Oltiariq	16,4	94,7	504,09	105,3
Qo'shtepa	1,1	128,0	801,50	106,6
Bag'dod	71,0	123,9	415,19	101,1
Buvayda	8,8	118,3	483,12	105,1
Beshariq	8,2	93,1	447,08	106,1
Quva	41,2	156,7	620,81	101,2
Uchko'prik	17,1	226,8	506,77	102,5
Rishton	16,8	58,8	332,66	109,1
So'x	1,3	145,8	203,46	105,7
Toshloq	21,2	78,3	316,01	107,7
O'zbekiston	10,0	101,3	375,95	104,7
Farg'ona	2,8	11,4	475,10	110,4
Dang'ara	8,4	106,8	316,57	103,8
Furqat	3,4	102,6	223,61	103,7
Yozyovon	11,6	89,7	412,97	104,2

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi**

(2019 yil yanvar- dekabr holatiga foyizda)



**Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019- yil yanvar- dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3 635,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (12 306,1 ming so'm), Qo'qon (7 773,5 ming so'm ) va Marg'ilon (4 505,8 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (1 639,1 ming so'm), Toshloq (1 693,6 ming so'm) va Rishton (1 754,2 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming soʻm	2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Fargʻona viloyati</b>	<b>3 635,4</b>	<b>103,1</b>
<b>shaharlar</b>		
Fargʻona	12306,1	104,0
Qoʻqon	7773,5	102,5
Quvasoy	3434,0	103,1
Margʻilon	4505,8	102,9
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	3635,4	103,1
Qoʻshtepa	2495,2	104,5
Bagʻdod	4280,7	101,8
Buvayda	2292,4	103,4
Beshariq	2191,0	104,0
Quva	2021,7	101,7
Uchkoʻprik	2598,0	102,3
Rishton	2326,1	103,0
Soʻx	1754,2	103,9
Toshloq	2662,8	103,2
Oʻzbekiston	1693,6	102,7
Fargʻona	1639,1	103,1
Dangʻara	2274,8	102,0
Furqat	1900,3	102,1
Yozyovon	1950,3	101,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 % ni tashkil etib, 259,8 mlrd. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % oʻsishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.

**Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmi  
(mlrd. soʻm)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasidagi ulushi kuzatilib, nisbatan, Fargʻona (57,8 %), Qoʻqon(11,8 %), Margʻilon (7,7 %) shaharlarida, shuningdek, Uchkoʻprik (5,2 %), Rishton (2,2 %) va Fargʻona (2,0 %) tumanlarida qayd etildi.


**FARG'ONA VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 028,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,5 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019- yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra 4 066,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,8 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 80,9 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Beshariq (100,0 %) hamda Oltiariq (99,9 %), Dang'ara (99,8 %) va Uchko'prik (99,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik , kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridagi  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari


Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 19,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Farg'ona (47,5 %), Bog'dod (20,0 %) tumanlarida hamda Qo'qon (16,0 %) shahrlida kuzatildi.



**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	<b>Jami</b> (mlrd. so'm)	<b>2018- yilning</b> <b>yanvar-dekabr</b> <b>oylariga</b> <b>nisbatan,</b> <b>% da</b>	<b>Yirik</b> <b>korxonalar</b> (mlrd.so'm)	<b>2018- yilning</b> <b>yanvar-dekabr</b> <b>oylariga nisbatan,</b> <b>% da</b>	<b>Kichik</b> <b>korxonalar</b> (mlrd.so'm)	<b>2018- yilning</b> <b>yanvar-dekabr</b> <b>oylariga</b> <b>nisbatan,</b> <b>% da</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>5 028,6</b>	<b>107,8</b>	<b>962,0</b>	<b>87,8</b>	<b>4 066,6</b>	<b>110,8</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	1 774,9	101,1	843,6	83,4	931,3	125,2
Qo'qon	642,9	112,9	103,1	242,6	539,8	102,5
Quvasoy	82,5	107,8	-	-	82,5	107,8
Marg'ilon	674,9	110,0	0,1	6,5	674,8	110,3
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	100,6	106,8	0,1	23,8	100,5	107,2
Qo'shtepa	6,5	106,2	-	-	6,5	106,2
Bag'dod	45,1	101,6	9,0	28,9	36,0	274,6
Buvayda	71,7	106,1	-	-	71,7	106,1
Beshariq	54,6	106,7	-	-	54,6	106,7
Quva	38,2	104,6	0,6	100,0	37,6	103,0
Uchko'prik	180,9	105,7	0,9	115,4	179,9	105,6
Rishton	21,5	105,1	0,6	108,9	20,9	105,0
So'x	3,0	104,2	0,2	40,5	2,8	116,0
Toshloq	256,3	107,1	2,3	-	254,0	106,1
O'zbekiston	744,2	106,1	0,3	104,1	743,8	106,1
Farg'ona	44,6	103,0	0,2	3,6	44,4	118,7
Dang'ara	215,9	105,8	0,5	117,7	215,5	105,8
Furqat	29,0	104,4	-	-	29,0	104,4
Yozyovon	41,2	102,8	0,4	120,8	40,8	102,7

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Bog'dod tumanida (101,6 %) va Farg'ona (101,1 %) shahrida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi

Tel.:71-230-87-18